



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI**

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq- 2025

Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar.
Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, I Tom. –
Toshkent: «Zebo print », 2025. 398 b.

Mas'ul muharrir:

G.I.Muxamedov – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlari doktori, professor

Y.X.Gaffarov – tarix fanlari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshev – katta o'qituvchi

Ushbu to'plamda Qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi:zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislari o'rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me‘moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e‘tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o'rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o'qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo'lishiga ishonch bildiraman..

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov

bag'rikenglik, totuvlik, mehr–shavqat, millatparvarlik tuyg'ulariga sodiq qolgan.

O'zbek xalqining bag'rikengligi tufayli O'zbekiston hududida turli millatlarning birligi va xilma–xilligi, ma'naviy mushtarakligi shakllangan.

Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida insonning yashashi, ta'lim olishi, mehnat qilish va o'z iqtidorini namoyish etishi kabi hayotiy va tabiiy haq–huquqlari turli darajada poymol etilayotgan bir davrda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari totuvlik hamda bag'rikenglik tamoyili asosida tinch–totuv yashab kelishmoqda.

Tinchlik va totuvlikni ta'minlash, bag'rikenglikni qaror toptirish masalasi hamisha tinchliksevar davlatimiz siyosatining muhim asosi bo'lib kelgan. Zero, bugun amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida tinchlik, barqarorlik, bag'rikenglik, o'zaro hamjihatlik, ishonch, hurmat kabi umuminsoniy g'oyalar yotadi. Bu esa yangi O'zbekiston ilgari surgan oqilona siyosatning muhim asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://qomus.info>.
2. Rahbarxon Murtazayeva. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. – Toshkent “Go To Print”. 2020.
3. Б.Ж.Эшов., А.А.Одилов. Ўзбекистон тарихи. II–жилд. (XIX аср II ярми – 1991 йил август). – Тошкент., “Янги аср авлоди”, 2015.
4. R.Shamsutdinov, H.Mo'minov. O'zbekiston tarixi. – Toshkent., “Sharq”. 2019.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент., “Шарқ”. 2000.

Ш.Б.Жумаева – ЧДПУ

Тарих кафедраси доценти, т.ф.ф.д. (PhD).

E-mail: shairajumayeva@mail.ru

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ: ИМКОНИАТЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛИ РЕЖАЛАР

Аннотация: Мақолада туризм индустрияси ҳамда Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантириш мақсадида амалга оширилаётган ислохотлар ёритиб берилган. Муаллиф Тошкент вилоятида зиёрат туризмни ривожлантириш имкониятлари,

муаммолар ва уларни бартараф этиш юзасидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб ўтган.

Таянч сўзлар: Туризм, зиёрат туризми, зиёратгоҳ, виза, Марказий Осиё.

Бугунги кунда туризм индустрияси жуда ҳам тез суръатларда ривожланиб, саёҳат ва тарихий туризм, таълим туризми, экотуризм, спорт, зиёрат, тиббиёт туризми каби йўналишларда халқаро туризм бозорида рақобат кундан кунга ошиб бормоқда. Таҳлилчилар маълумотига кўра туризм соҳасида 1 та иш ўрнинг яратилса, ўзаро боғлиқ соҳаларда яна 5та иш ўрни яратилишига олиб келади [1]. Ўзбекистон Республикаси ҳам бу соҳада ўзига хос имкониятлар ва устуворликка эга мамлакатлардан бири бўлиб, халқимизнинг бой тарихий-маъданий мероси, ватанимизнинг бетакрор ва жозибадор табиати, табиий ресурслари нафақат ички туризмни балки халқаро туризмнинг барча соҳаларини ривожлантириш имкониятини беради. Жумладан, Ўзбекистон ўзининг бой тарихи, бетакрор маданий мероси, қадимий меъморий ёдгорликлари, бетакрор ошхонаси ва халқ амалий санъати билан хорижликлар, сайёҳлар ва зиёратчиларнинг эътиборини тортади. Давлатимиз раҳбарининг 2021 йил 2 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 24 февралдаги “Ички ва зиёрат туризмини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори туризмнинг ушбу йўналишини ривожлантиришда ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Мазкур соҳани янада ривожлантириш мақсадида 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди. Мазкур концепцияга кўра 2025 йилга келиб хорижлик сайёҳлар сонини 9-10 миллион нафарга ошириш, турли кўرғазмалар, танловлар ўтказиш, Ўзбекистонни фестиваллар мамлакатига айлантириш, шу тариқа ивент-туризмни ривожлантириш режалаштирилган.

Халқаро туризмнинг энг сердаромад йўналишларидан бири-зиёрат туризмидир. Ватанимиз уламоларининг ислом дини ва илм-фан равнақига қўшган ҳиссаси, уларнинг илмий-маънавий мероси ҳамда Марказий Осиё ҳудудининг ислом цивилизациясининг шаклланишида тутган ўрни, халқимизнинг бой тарихи ва

меҳмондўстлиги зиёрат туризмини ривожлантиришга асос бўлади. Исмоил Сомоний, Чор Бакр, Чашмаи Аюб, Шоҳизинда, Руқобод, Имом Ал-Бухорий, Баҳоуддин Нақшбанд, Гўри Амир, Хўжа Ахрор, Паҳлавон Маҳмуд, Ҳазрати Имом, Занги Ота, Султон Саодат, Ҳаким ат-Термизий каби машҳур зиёратгоҳлари фикримиз далилидир. Жумладан, Тошкент вилоятида жойлашган Зангиота зиёратгоҳи Марказий Осиё минтақаси халқлари учун ғоятда муқаддас қадамжо ҳисобланади. Бу тарихий-меъморий мажмуани ҳар куни 5 минг нафар зиёратчи ва сайёҳлар зиёрат қилгани буни яққол тасдиқлайди. Зиёратчиларнинг турли мамлакатдан эканлиги ҳам эътиборга моликдир.[2]

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Тошкент вилояти ўзига хос салоҳиятга эга ҳудудлардан бири ҳисобланади. Тошкент воҳаси ғарбдан Тянь-Шань шарқдан Угом, Писком, Чотқол тоғ тизмалари билан ўралган бўлиб, бу тоғлар бағридан оқиб чиқувчи ирмоқлар Чирчиқ дарёсини ҳосил қилади. Вилоятнинг антропоген ландшафти ва табиий географик шароитининг қулайлиги сабабли одамзот унинг ҳудудини қадимги тош давридан бошлаб (Кўлбулоқ, Обираҳмат, Хўжакент) ўзлаштирилган.[3]

Қадимдан, Илоқ, Бинкент, Чоч, Шош номлари билан машҳур Тошкент воҳаси қадимдан Европа ва Осиёни боғлайдиган йўллар чорраҳасида муҳим савдо маркази бўлиб, Осиёнинг дарвозаси бўлиб хизмат қилганлиги боис “Шарқ дарвозаси”, қулай табиий-географик жойлашуви, тарихи, бетакрор меъморий обидалари билан дунёга “Шарқ гавҳари” деб номлари билан танилган. Шу сабабли Тошкент воҳасига ташриф буюрувчилар, қадим ва навқирон воҳани зиёрат этувчилар доимо кўпчилиқни ташкил этган.

Тошкент вилояти ҳудудида 828 та моддий маданий мерос объекти бўлиб, шундан 588 таси археология, 7 таси архитектура, 74 таси монументал ёдгорлик, 159 таси диққатга сазовор жойлардир. Шунингдек, 223 таси маҳаллий ва 605 таси республика аҳамиятидаги объект сирасига киради.

Айтиш жоизки, 2016-2021 йиллар давомида 18 та маданий мерос объектида таъмирлаш тиклаш ишлари олиб борилди. Ушбу мақсадлар учун жами 18 миллиард 582 миллион сўм маблағ ажратилди.

Вилоят худудида жойлашган Занги ота, Шайх Умар Вали Боғистоний, Мачит Али, Заркент ота, Шодмалик ота, Пайғамбар ота, Парпи ота каби зиёратгоҳлар нафақат Тошкент вилоятида, балки Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантиришда ҳам муҳим маданий мерос объектлари ҳисобланади.

Мазкур қадамжо ва зиёратгоҳларга нафақат республикамиздан, балки қўшни республикалар ҳамда Россия, Туркия, Индонезия, Малайзия, Эрон, Покистон каби давлатлардан зиёратчилар ташриф буюришмоқда. Амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари билан бир қаторда вилоятда зиёрат туризмини ривожланишига салбий таъсир қилувчи объектив ва субъектив муаммолар ҳам мавжуд:

1.Худуднинг туристик ресурсларини реклама , тарғибот ва ташвиқот ишларининг пастлиги.

2.Зиёратгоҳлар жойлашган ҳудуд инфраструктурасидаги муаммолар: зиёратгоҳларга олиб борувчи йўлларнинг асосий қисми таъмирлашга муҳтож, ичимлик суви ва табиий газ муаммолари.

3.Зиёратчилар ва сайёҳларга хизмат кўрсатувчи меҳмонхоналар сони ва хизматлар сифати, нархини қайта кўриб чиқиш лозим.

4.Муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг тарихий-меъморий қиёфасини ва табиат билан уйғунлигини йўқотмаслиги учун реконструкция, ободонлаштириш ишларини мутахассис олимлар билан ҳамкорликда амалга оширишни йўлга қўйиш лозим.

Тошкент вилояти зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболли режасида қуйидагилар амалиётга татбиқ этилса мақсадга мувофиқ бўлар эди:

1.Туристтик ресурслар тўғрисида сайтлар ва мобил дастурларни ишлаб чиқиш орқали тарғибот ишларини кучайтириш лозим.

2.Тошкент вилоятида туризм индустрияси бўйича инвестицион лойиҳалар сонини ошириш.

3. Минтақавий ҳамкорликни йўлга қўйиш орқали туристлар оқимини кўпайтириш. Масалан, Буюк Ипак йўли кесимида: Қозоғистон-Ўзбекистон қўшма турлари каби [4].

4. Туризм соҳаси билан боғлиқ кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш бўйича дастурлар ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш лозим.

5. Зиёрат туризми йўналишини қўшимча йўналишлар билан бойитиш яъни экотуризм, гастрономик туризм, шоппинг ва бошқалар билан уйғунлаштириш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Тошкент вилояти нафақат зиёрат туризми, балки экотуризм, саёҳат туризми, спорт туризми, тиббиёт туризмини ривожлантириш бўйича улкан салоҳиятга эга ҳудуд ҳисобланади. Туризм бўйича сайёҳлар сонининг ўсиши аҳолини иш билан таъминланишига, валюта тушумининг кўпайишига, ЯИМнинг ўсиши ҳамда мамлакатнинг экспорт салоҳиятини оширишга хизмат қилиб, валюта киримлари ҳамда ташқи савдо баланси барқарорлиги таъминланади. Шу сабабли мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, Ўзбекистоннинг туризм хабини яратиш сари барча имкониятларни сафарбар этиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. <http://www.webeconomy.ru>
2. Эралиев Б., Остонақулов И., Абдулаҳатов Н. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари. 3-жилд. Тошкент-2015й. 295-б.
3. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар («Тафаккур сарчашмалари» туркумидан). Тўплам-3. Т-2009. 13-бет
4. Тошкент вилояти хокимининг 2000 йил 3 мартдаги 93-сонли қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 28 августдаги 708-сонли Фармойиши
6. <https://uzbektourism>.

Ибадуллаева Р.

Магистрант 1-го курса исторического факультета
Национального университета Узбекистана

ФОРМИРОВАНИЕ АМУДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ ПОЛИТИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ

Аннотация: В данной статье на основе изучения литературы и исследований различных периодов проанализированы политические

MUNDARIJA

Q.Rajabov. TOSHKENT – SHARQ DARVOZASI YOXUD “TOSHKENT RUHI”NING OLAMSHUMUL AHAMIYATI.....	5
A.Ashirov. TO‘SHKENT VO‘XASI A‘HOLISINING MILLIY QADRIYATLARI VA UR‘F-ODATLARI HA‘QIDA AYRIM MULO‘HAZALAR.....	12
D. Alimova. DJADIDY TASHKENTA I I‘X SPONSORI.....	21
Sh.Qo‘ldashev. “ZAFARNOMAI XUDOYORXON”DA SHIRCHI‘Q DARYOSI BO‘YIDAGI JANG TAFSILOTI.....	32
D.Normurodov. BO‘STONLI‘Q TUMANI “SI‘JAK” MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLGI‘K TADQIQOTLAR XUSUSIDA.....	36
R.Ikramov. TURKISTONDA RUS IDORA USLULLARINING JORIY ETILISHI.....	40
Ya.Gafurov. MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI TA‘MINKLASHDA U‘ZBEKISTON-MDX HAMKORLIGI.....	43
D.Ahmadjanov. O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK.....	51
O.Normatov. TOSHKENT VILOYATI TARIXI RAYONLASHTIRISH DAVRIDA.....	53
V.Qandov. TURKISTON ASSRDA NAZIR TO‘RA‘QULOV BOSHCHILIGIDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHI.....	57
M.Kamolova. XIX ASRNING IKKICHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRINING ARHITEKTURASIDAGI O‘ZGARISHLAR (Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman faoliyati misolida).....	68
J.Abduraxmanova. TOSHKENT VILOYATI AHOLISINING MILLIY TARKIBI TARIXI.....	71
Sh.Jumaeva. TO‘SHKENT VILOYATIDA ZI‘RAT TURIZMI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLI REJALAR.....	75
R.Ibadullaeva. FORMIROVANI‘E AMUDAR‘YINSKOY OBLASTI I EY POLITICHESKO‘E POLOZHENI‘E.....	79
M.Rahmanova. KATTA O‘RTA OSIYO IQTISODIY RAYONINING GEOGRAFIK JOYLASHUV XUSUSIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	85
A.Tursunmetov. KOLONIALNAYA BYUROKRATIYA TASHKENTA V PERIOD P‘ERVOY MIROVOY VOYNY. DELO O BANKAX V JURNALE «IZOX».....	90
M.Sherov. TOSHKENT VILOYATI IJTIMOY – SIYOSIY HAYOTIDA SHIRCHI‘Q OLIY TANK QO‘MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTINING TUTGAN O‘RNI.....	93
N.Holikova. SIDKIY XONDAYLIKIYNING “RUSIYA INKLOBI” DOSTONIDA IJTIMOYI-MAFRIFIY MAZMUN VA ADABIY-ESTETIK HOSSALAR.....	98
O.Pugovkina. GEOGRAFIYA S ISTORI‘EY. PROSHLO‘E I NASTOYASH‘EE TASHKENTA V NAUCHNOM NASLEDII N.G. MALLI‘C‘KOGO.....	109
Sh.Yuldashov. O‘ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI.....	

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Mas'ul muharrir:

G.I.Muxamedov – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlari doktori, professor

Y.X.Gaffarov – tarix fanlari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

S.A.Toshev – katta o'qituvchi

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.